

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
QORAQALPOG‘ISTON BO‘LIMI, QORAQALPOQ GUMANITAR  
FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**JARILQASINOVA MALIKA QUWANISHBAY QIZI**

**T.JUMAMURATOV IJODIYOTIDA XALQONA PAFOS VA BADIY  
MAHORAT**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**NUKUS – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Jarilqasinova Malika Quwanishbay qizi**

T.Jumamuratov ijodida xalqona pafos va badiiy mahorat..... 3

**Жарылқасинова Малика Қуўанышбай қизи**

Народный пафос и художественное мастерство в творчестве  
Т.Жумамуратова..... 23

**Jarilqasinova Malika Quwanishbay qizi**

Folk pathos and artistic mastery in the works of T.Jumamuratov..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published work..... 49

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
QORAQALPOG‘ISTON BO‘LIMI, QORAQALPOQ GUMANITAR  
FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**JARILQASINOVA MALIKA QUWANISHBAY QIZI**

**T.JUMAMURATOV IJODIYOTIDA XALQONA PAFOS VA BADIY  
MAHORAT**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**NUKUS – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2PhD/Fil2708 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Palimbetov Kamalbay Sarsenbaevich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Turdibaev Qonaqbay Kewlimjaevich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Arziev Sharapatdin Abdiraxmanovich**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kungi soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Q.K.Orazimbetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**J.O.Tanirbergenov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Z.U.Bekbergenova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori  
(DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligining barcha davrlarida poeziyaning tadqiq qilinishi yangicha qarashlar va ilmiy tamoyillarni vujudga keltirgan. Zero, insoniy his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalarni tasvirlash, ayniqsa, xalqona pafos orqali ifodalash ijodkordan o'ziga xos badiiy mahorat talab qiladi. Negaki, muayyan xalq turmush tarzi, milliy-madaniy an'analari, tafakkuriga xos xususiyatlarni xalqona ruhda badiiy talqin qilishda ijodkor badiiy mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat adabiyotshunoslikda ma'lum bir ijodkor asarlarida pafos va badiiy mahorat masalasini uyg'unlikda o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

Dunyo adabiyotshunosligida xalqona pafos – pafosning bir turi sifatida shakllangan. Pafosning ushbu turi boshqa turkiy xalqlarga nisbatan qoraqalpoq adabiyotshunosligida kam o'rganilgan. Shu ma'noda, qoraqalpoq lirikasida shoir ijodidagi xalqona pafosni milliy qadriyatlar, an'analar va folklor namunalari asosida ifodalashdagi individual jihatlarni aniqlash, adabiy an'analarni stilizatsiyalash mahorati, umuman, ijodkorning uslubiy o'ziga xosligida muammoning aks etishini tadqiq qilishga ehtiyoj sezilmoqda. Qolaversa, muayan bir shoir ijodida xalqona pafosni vujudga keltirish, unda shakl va mazmun mutanosibligini ta'minlash hamda obraz yaratish mahoratini o'rganish dolzarb muammo sanaladi.

Yurtimizda shakllangan adabiy va madaniy merosni rivojlantirish, milliy o'ziga xoslik va yuksak ma'naviy manbalarni shakllantirish, yozuvchi-shoirilar ijodini munosib baholash hamda targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Negaki, lirik asarlar adabiy-badiiy hodisa sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ma'naviy xazina, milliy qadriyatlar talqini tarzida bo'y ko'rsatdi. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev e'tirof etganidek: "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham, albatta, bo'ladi"<sup>1</sup>. Shu ma'noda, xalq shoiri T.Jumamuratov ijodiyotida xalqona pafos hamda badiiy mahorat masalasini tadqiq qilish qoraqalpoq adabiyotshunosligidagi istiqbolli yo'nalishlardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2789-son, 2020-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори // Халқ сўзи. - №153 (6847). – Тошкент, 2017, 4-август.

son, 2020-yil 23-sentabrdagi PQ-2909-son Qarorlari, shuningdek, 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Nazmda xalqona pafos va badiiy mahorat muammosini ilmiy tadqiq qilishda jahon adabiyotida muayyan tajribalarga erishilgan. Xususan, bu borada V.F.Gegel, V.G.Belinskiy, G.N.Pospelov, V.E.Xalizev, M.B.Xrapchenko kabi olimlar masalaning umumnazariy mohiyati haqida munosabat bildirsa, boshqa rus olimlari E.G.Rudneva, A.B.Esin, B.I.Olenskiylar tadqiqotlarida maxsus o‘rganilgan<sup>2</sup>.

Turkiy xalqlar orasida Z.Axmetov, Q.Jumaliev, Q.Jumajanov kabi qozoq adabiyotshunoslari xalqona pafos to‘g‘risida diqqatga sazovor fikrlar bildirgan bo‘lsa, O‘.Abdiman o‘g‘li va A.Nurlanovalar bu masalada monografik tadqiqot olib borgan<sup>3</sup>. O‘zbek adabiyotshunosligida I.Sulton, M.Olimov, Z.Pardayev, G.Ashurova, M.Davronovalarning<sup>4</sup> tadqiqotlarida xalqona pafos milliy ruh va badiiy mahorat masalalari muayyan darajada tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Shundan, M.Olimov, M.Davronova va Z.Pardayevlar ilmiy izlanishlarida pafos nazariyasi, lirikada xalqona pafosning namoyon bo‘lishi va badiiy mahorat masalasi dissertatsion tadqiqotlarda o‘rganilgan.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida S.Axmetov, M.Nurmuxamedov, Q.Bayniyazov, A.Pirnazarov, K.Xudaybergenov, Q.Jarimbetov, Q.Orazimbetov, M.Jumamuratova, B.Genjemuratov, Z.Bekbergenova, O.Gaylieva, A.Dosimbetova, G.Tleuniyazova, Z.Ayimbetova kabi olimlarning nazmiy

---

<sup>2</sup> Гегель В.Ф. Эстетика Т. I. – Москва: Искусство, 1968; Белинский В.Г. Избранные статьи. Сочинения Александра Пушкина (Статья пятая). – Саратов: Приволжское книжное изд-во, 1974; Пospelov Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2004; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Советский писатель, 1970; Руднева Е.Г. Пафос художественного произведения (Из истории проблемы) – М.: Изд-во МГУ, 1977; Руднева Е.Г. Идеиная направленность (пафос) художественного произведения. (Из истории проблемы): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1971; Esin A.B. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта. Наука, 2000; Оленский Б.И. Народно-патриотический пафос как стихия света в художественном мире Леонида Леонова (От «Бурьги» до «Русского леса»). Историко-литературный и актуальный контекст: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2004.

<sup>3</sup> Axmetov Z. O‘leç sözdüç teoriası. – Almatı: Mektep, 1973; Jumaliev Q. O‘debiyet teoriası. – Almatı: Qazaqstan memleketтік оку-педагогика баспасы, 1969; Жумажанов Қ. Халық шайырлары поэзиясында фольклорлық хэм даралық дәстүр. Монография. – Неқис: Билим,1993; O‘бдиманўлы O. Qazaқ o‘debiyetindeгі ўлттық рух. Монография. – Almatı: Qazaқ университети, 2020; Нурланова А. Шәкәрім шығармаларындағы ўлттық рух //Абай атындағы Қаз ҰПУ Хабаршысы. – Almatı, 2019. - № 3.

<sup>4</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Олимов М. Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1995; Пардаев З. Истиклол шеъриятида халқона пафоснинг янгилашиши: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. – Тошкент, 2020; Ашурова Г.Н. А.Орипов шеъриятида анъана ва бадий маҳорат (образ, гоя ва тасвир): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2008; Давронова М.И. Муҳаммад Юсуфнинг поэтик маҳорати. Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2004.

asarlarga bag'ishlangan monografiya va dissertatsiyalarida pafos, adabiyotning xalqchilligi hamda ijodiy mahorat masalalari xususida ilmiy-nazariy qarashlar bildirilgan<sup>5</sup>.

Badiiy ijod va adabiy tafakkurda muntazam ravishda yangi tamoyillar vujudga kelar ekan, pafosga xos xususiyatlar, uning qoraqalpoq poeziyasida tutgan o'rni, badiiy talqinda ijodkor mahoratining namoyon bo'lishini muayyan shoir lirikasi misolida tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning ahamiyatli masalalaridan biridir.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasa ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining "Qoraqalpoq yozuvchilari ijodiy laboratoriyasini monografik aspektda tadqiq qilish" (2021–2023) mavzusidagi fundamental tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hozirgi qoraqalpoq poeziyasi, xususan, T.Jumamuratov ijodiyotida xalqona pafos va uning ijtimoiy, ma'naviy hamda psixologik asoslarini aniqlash asnosida ijodkor badiiy mahoratini yoritishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

jahon va qoraqalpoq adabiyotshunosligida xalqona pafos va badiiy mahorat yuzasidan mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish, tizimlashtirish hamda umumlashtirish;

T.Jumamuratov poeziyasida xalqona pafos hamda uning ijtimoiy-psixologik asoslarini aniqlash orqali shoir badiiy mahoratini yoritish;

T.Jumamuratov poeziyasida xalqona pafosning ifodalanishi, obrazlar olami hamda ijodkor uslubiy o'ziga xosligiga xos xususiyatlarni aniqlash;

T.Jumamuratov poeziyasida xalqona pafosning tutgan o'rni va ahamiyatini to'rt, besh, olti, sakkiz, o'n satrli kichik lirik shakllar, shuningdek, satirik va yumoristik she'rlar tahlili orqali ochib berish;

---

<sup>5</sup> Ахметов С. Талантқа талап. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1986; О'sha muallif. Эдебият хэм критика. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1978; Нурмухаммедов М. Бердақ – Қарақалпақ халқының уллы шайыры. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1979; Байниязов Қ. Аяпберген Муўсаевтың шайырлық стилинің өзгешеликлери. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1972; Пирназаров Ә. Мастерство Ажинияза. – Нукус: Каракалпақстан, 1983; О'sha muallif. Эдебиятшы, сыншы, алым Эбдикерим Пирназаровтың Әжиниязтаныў илими. – Нөкис: Avangard-baspa, 2022; Пирназаров А. Өтеш, Омар хэм фольклор. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1991; Худайбергенов К. Лирика хэм өмир. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1971; О'sha muallif. Дәўир хэм парыз. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1987; Järimebetov Q., Genjemuratov B. Ádebiyat teoriiyası. –Tashkent: Sano-standart, 2018; Оразымбетов Қ. Таңламалы шығармалар топламы. Еки томлык. 1-т. – Нөкис: Билим, 2018; Жумамуратова М. Сөз маржанын дизгенлер. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1994; Генжемуратов Б. Әжинияз лирикасының поэтикасы. – Нөкис: Билим, 1997; Бекбергенова З. Хәзирги қарақалпақ поэзиясында фольклорлық дәстүрлер. – Нөкис: Илим, 2011; Гайлыева О. Ғәрезсизлик дәўири түркий халықлар лирикасында формалық изленислер хэм олардың типологиясы (Өзбек, қарақалпақ хэм түркмен лирикасы мысалында): Филол. илим. д-ры. ... дис. – Нөкис, 2019; Досымбетова А. Ш. Сейтов лирикаларында көркем форма (дәстүрий хэм жаңа формалардың синтези, сүүретлеў усыллары, еркин қосықлардың формалық өзгешеликлери): Филол. илим. канд. ... дис. – Нөкис, 2008; Тлеўниязова Г. Хәзирги қарақалпақ лирикасында композициялық изленислер (1990-2010-жыллар). Монография. – Ташкент: LESSON PRESS, 2022; Айымбетова З. И. Юсупов поэзиясында фольклоризм: эволюция, өзлестириў типлери: Филол. илим. филос. д-ры (PhD). ... дис. – Нөкис, 2022.

shoirning liro-epik asarlari va “Mákárya sulıw” dostoni yaratilishida folklor an’analari, afsona va rivoyatlar, maqol-matallardan foydalanish orqali xalqona pafosni ifodalashdagi mahoratini asoslash;

shoir asarlarida xalqona ruh va ohang yaratishda troplar va poetik figuralarning o‘rni va ahamiyatini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida T.Jumamutarovning “Júrek muhabbati” (1956), “Meniń zamanlaslarım” (1963), “Tolqında” (1970), “Mákárya sulıw” (1973), “Shıǵarmalar jıynaǵınıń 3 tomlıǵı. I tom” (1978), “Túrli ótkeller” (1983), “Doslıq haqqında qosıqlar” (1988), “Ómirińniń ózi filosofiya” (2005), “Aralǵa keldim oralıp” (2015), “Kiyiktiń eki ılaǵı” (2015), “Jazıwshı hám altın balıq” (2015) “Úy qasında sarı tal” (2015) to‘plamlari tanlandi.

**Tadqiqotning predmetini** T.Jumamuratov ijodiyotida xalqona pafos, badiiy mahorat va ijodiy individuallikning namoyon bo‘lishi, tasvir va poetik obrazlar yangilanishi kabi masalalar tahlili tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analitik, qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik tahlil usullaridan keng foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

poeziyada xalqona pafos va badiiy mahorat masalasida mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda mazkur muammoning qoraqalpoq adabiyotshunosligida tadqiq qilinish darajasi aniqlangan;

T.Jumamuratov lirikasida xalqona pafosning namoyon bo‘lishida xalq maqol va matallarining stilizatsiyalashuvi, to‘rtliklarda satrlararo g‘oyaviy va fikriy munosabat, badiiy niyat, shoir ijodining aksariyat hollarda satiraga moyilligi, davr va jamiyat muammolarining badiiy talqini, subyektiv g‘oyalarning lirik qahramon obrazida aks etishi ochib berilganligi ilmiy-nazariy asoslangan;

liro-epik asarlar va ularning yaratilishida afsona, ertak va dostonlarga xos syujetlardan foydalanish mahorati shoirning “Aǵayinli eki batır”, “Kiyiktiń eki ılaǵı”, “Bala tuwralı sóz” poemalaridagi stilizatsiya, badiiy detallar, konkret obrazlarda aks etgan xalqona pafos, shuningdek, an’anaviylik va novatorlik jihatlar tahlili orqali ochib berilgan;

T.Jumamuratov ijodiyotida xalqona pafosning badiiy nutq shakllari, “ona” va “ayol” obrazlari orqali milliy qadriyatlarga muvofiq gradatsiya usulida ifodalanishi, “Mákárya sulıw” dostonidagi “ajdarho” obrazi hamda asarda qo‘llanilgan metofora va metonimiyalarning badiiy funksiyalari nazariy dalillangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xalqona pafos va badiiy mahorat borasida adabiyotshunoslikda mavjud ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilib, T.Jumamuratov poeziyasida xalqona pafosni aks ettirishda afsona hamda rivoyatlar, xalq maqol va matallaridan mohirona foydalanishi aniq misollarda dalillangan;

shoir ijodida xalqona pafos folklor va realistik adabiyot namunalari bilan o‘zaro uyg‘unlikda tasvirlanishi uslubiy o‘ziga xoslik sifatida asoslab berilgan;

T.Jumamuratov ijodiga oid janr va shakllarda xalqona pafosni aks ettirishda antiteza va gradatsiya kabi ifoda usullar yetakchilik qilishi, shuningdek, milliy

qadriyatlar badiiy talqinidagi ijodiy individuallik badiiy mahorati bilan bog‘liqligi isbotlangan;

shoir ijodida badiiy troplar xalqona pafosni detallashtirish va lirik qahramon ichki kechinmalarini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilishi, uslubiy figuralarning esa obrazlilikni kuchaytirish, solishtirish yoki kontrastlikni vujudga keltirishdagi badiiy-estetik vazifasi ilmiy-nazariy asoslangan;

T.Jumamuratov lirikasida metafora, metonimiya, sifatlash, ellipsis, anafora, alliteratsiya, assonans kabi trop va uslubiy figuralar, gradatsiya singari tasvir usullari xalqona pafosni ifodalash hamda lirik qahramon xarakteri, psixologik holatini aks ettirishda muhim omil ekanligi dalillangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy omillarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, amalga oshirilgan tahlil va chiqarilgan xulosalar tavsifiy xarakterga egaligi, bildirilgan fikr va tavsiyalarning ilmiy-nazariy asosga egaligi, fikr va tavsiyalarning amaliyotga keng qo‘llanilganligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan dalillanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi qoraqalpoq poeziyasida xalqona pafos va badiiy mahorat yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlarni takomillashtirish va to‘ldirishda, yangi badiiy-estetik tamoyillarning taraqqiyot tamoyillar qonuniyatini belgilashda muhim ilmiy manba vazifasini bajarishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qoraqalpoq lirikasi bo‘yicha darsliklar, qo‘llanmalar, xrestomatiyalar yaratishda, oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida maxsus kurslar tashkil etishda, ma‘ruza matnlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** T.Jumamuratov ijodiyotida xalqona pafos va badiiy mahorat mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

shoir she‘riyatida xalqona pafosga asoslangan poetik talqin, xalq maqol va matallari stilizatsiyasi, kichik lirik janrlarda ifoda va ohang, hajviy talqindagi o‘ziga xoslik, shoir shaxsiyati va lirik qahramon munosabati masalalarining tadqiq qilinishi bilan bog‘liq xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining “Qoraqalpoq yozuvchilari ijodiy laboratoriyasini monografik aspektida tadqiq qilish” (2021–2023) mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 19-martdagi 215/1-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, loyihaning qoraqalpoq lirikasida xalqona pafos va uning o‘ziga xususiyatlari, ijodkor individualligi masalalarining o‘rganilishi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy tahlillar takomillashtirilgan;

shoirning liro-epik asarlar va ularning yaratilishida afsona, ertak va dostonlarga xos syujetlardan foydalanish mahorati, xususan, “A‘gayinli eki batir”, “Kiyikni eki ilagi”, “Bala tuwrali soz” poemalaridagi stilizatsiya, badiiy detallar, konkert obrazlarda aks etgan xalqona pafos, shuningdek, an‘naviylik va novatorlik jihatlar tahliliga oid xulosalardan Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasida yosh ijodkorlar uchun tashkil etilgan seminarlar va mahorat darslarida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil

12-oktabrdagi 83-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yosh ijodkorlarda T.Jumamuratov ijodida badiiy pafos va badiiy mahorat, soʻz qoʻllash, xarakter va obraz yaratish hamda badiiy tafakkur masalalari yuzasidan tushunchalarini takomillashtirishga erishilgan;

T.Jumamuratov ijodiyotida xalqona pafosning badiiy nutq shakllari, “ona” va “ayol” obrazlari orqali milliy qadriyatlarga muvofiq gradatsiya usulida ifodalanishi, “Mákárya sulıw” dostonidagi “ajdarho” obrazi hamda asarda qoʻllanilgan metofora va metonimiyalarning badiiy funksiyalariga oid xulosalardan Qoraqalpogʻiston teleradiokompaniyasida “Qayirli tań” radioeshittirishini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpogʻiston teleradiokompaniyasining 2024-yil 23-dekabrdagi 05-22/560-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan hamda shoirning xalqona pafosdagi she'rlari yosh avlodning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga, ularni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 6, jumladan, 4 xalqaro hamda 2 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalar, e'lon qilingan tezislar orqali jamoatchilik e'tiboridan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini nashr etishga tavsiya etilgan ilmiy baza va nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta maqola respublika, 2 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olib, umumiy hajmi 152 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari yoritilib, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Badiiy adabiyotda xalqona pafos va uning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanadi. Uning **“Xalqona pafos muammosiga doir umumnazariy tushunchalar”** deya nomlangan birinchi faslida xalqona pafos va badiiy mahorat xususidagi umumnazariy qarashlar tahlil qilingan. Mazkur faslida pafosning tushuncha va atama sifatida shakllanish tarixiga V.F.Gegel, V.G.Belinskiy, G.N.Pospelov, V.E.Xalizev, M.B.Xrapchenko, E.G.Rudneva, A.B.Esin, B.I.Olenskiy kabi rus adabiyotshunoslari; Z.Axmetov, Q.Jumaliev, Q.Jumajanov, O'Abdiman o'g'li, A.Nurlanova singari qozoq olimlari; o'zbek adabiyotshunoslari I.Sulton, M.Olimov, Z.Pardayev, G.Ashurova, M.Davronova hamda qoraqalpoq adabiyotshunosligida S.Axmetov, M.Nurmuxammedov, Q.Bayniyazov, A.Pirnazarov, A.Pirnazarov, K.Xudaybergenov, Q.Jarimbetov,

Q.Orazimbetov, B.Genjemuratov, Z.Bekbergenova, O.Gayliyeva, A.Dosimbetova, G.Tleuniyazovalarning ilmiy tadqiqotlaridagi nazariy qarashlariga tayangan holda ilmiy munosabat bildirildi.

Pafosni badiiy-san'at asosi deb bilgan Gegel, tragediyaning vujudga kelishidagi asosiy kuch sifatida e'tirof etgan Aristotel davrlaridayoq pafos, asosan, personajlar faoliyati bilan bevosita bog'liq kechgan. Negaki, unda ijrochi mahorati yetakchi o'rin egallaydi. Qolaversa, bu davrda teatr ancha rivojlangan bo'lib, muallif shaxsi va ruhiyati to'g'ridan to'g'ri personajlarga ko'chirilgan. Sahna qahramonlarining ruhiy holati, quvonch-u tashvishlarini tomoshabin e'tiboriga havola etishda ayni his-tuyg'uni paydo qilish maqsad qilingan. Mazkur holatda V.G.Belinskiy shoir (muallif) pafosini asosiy birlik sifatida qaraydi. Bu ikki ilmiy qarash ham bir-bir bilan o'zaro aloqadorlik kasb etadi. Zero, badiiy asarda pafos qahramon va muallif ruhiy olami birligidan iborat bo'ladi.

G.N.Pospelov esa, "Pafos – asosan adabiy asarning mavzusi hamda problematikasidan kelib chiqadi"<sup>6</sup>, – degan edi. Yana, u "Yozuvchining o'zi tanlagan qahramonlariga g'oyaviy-emotsional munosabati va ularga bergan bahosi – pafos hisoblanadi"<sup>7</sup>, – degan fikrlarni ham keltirib o'tadi. Demak, muallif pafosi, ruhi badiiy asarga ko'chishi ham mumkin.

O'zbek adabiyotshunosi Z.Pardayev poeziyada xalqona pafosning yangilanishi yuzasidagi tadqiqotida "Xalqona pafos tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan his-tuyg'ularning xalqona uslubda tasvirlanishi jihatidan bir tomondan klassik an'analar davomi bo'lsa, ikkinchi tomondan xalq og'zaki ijodiga xos..."<sup>8</sup> – deya munosabat bildiradi. Badiiy adabiyotda pafos mummosini tadqiq qilgan yana bir olim M.Olimov fikricha, "Estetik jihatdan asoslangan tuyg'ulardan iborat bo'lsagina o'ziga xos pafos vujudga keladi"<sup>9</sup>, – deya pafos turlariga tavsif beradi.

Qoraqalpoq adabiyotshunosi K.Xudaybergenov<sup>10</sup> lirika poetikasini tadqiq etarkan, pafos yuzasidan Belinskiy xulosalariga tayanganligi seziladi. Olim pafos xususidagi nazariy qarashlarni takomillashtirgan holda ta'kidlaydiki, "She'riy asar g'oyasini uning bir yoki ikki-uch satrlaridan emas, balkim butun matndan izlash lozim. Negaki, tafakkurning rivojlanishi, pafosda namoyon bo'ladi. Tafakkurni esa tuyg'udan ajratish mumkin emas". Shuningdek, olim o'zining "Dáwir hám parız" (1987) tadqiqotida ijodkor individualligi xususida munosabat bildirar ekan, "... ba'zan g'oya bir necha she'rlarda berilishi mumkin. Ammo u shoir yuragidan o'tsagina, biri-ikkinchisini takrorlamasligi mumkin"<sup>11</sup>, – deya e'tirof etadi.

Dissertatsiyaning ushbu faslida adabiyotshunos olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda pafos atamasining shakllanishi, uning turlari hamda xalqona pafosning T.Jumamuratov ijodida namoyon bo'lishi keng tahlil qilindi.

Bobning **"T.Jumamuratov ijodining qoraqalpoq adabiyotida xalqona pafos ifodasining rivojlanishidagi o'rni"** deb nomlangan ikkinchi faslida

<sup>6</sup> Пospelov Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978. – С. 300.

<sup>7</sup> O'sha muallif. Проблемы исторического развития литературы. – Москва: Просвещение, 1972. – С. 12-13

<sup>8</sup> Пардаев З. Истиклол шеърлятида халқона пафоснинг янгиланиши: Филол. фан. филос. д-ри (PhD). ... дис. – Тошкент, 2020. – Б. 44.

<sup>9</sup> Олимов М. Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси: Филол. фан. ном. ... дис. –Тошкент, 1995. –Б. 7.

<sup>10</sup> Худайбергенов К. Лирика ҳам омир. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1971. – Б. 28.

<sup>11</sup> O'sha muallif. Дәўир ҳам парыз. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1987. – Б. 82.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri T.Jumamuratov ijodining o‘rganilishi, xalqona pafos hamda badiiy mahorat masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilindi. Ta’kidlash kerakki, muayyan so‘z san’atkori ijodining o‘rganilishida unga ijodiy pafos nuqtayi nazardan yondashish lozim bo‘ladi. Chunki, har bir shoir yoki yozuvchi o‘zining ijodiy uslubi, badiiy tasvir yo‘nalishiga ega bo‘ladi. V.G.Belinskiy e’tirof etgan pafos – shoirni ijodga da’vat etgan ehtirosni har bir shoir turlicha his qiladi va ifodalaydi. Kimdir hayotiy voqealar, ko‘rgan-kechirganlaridan ta’sirlansa, kimdir tabiat go‘zalligidan ilhomlanadi. Shoir T.Jumamuratov ijodining pafosi esa, qoraqalpoq xalqi hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgacha shoir ijodi yuzasidan adabiyotshunoslikda umumiy aspektdagi ilmiy munosabatlardan boshqa yirik monografik tadqiqotlar yaratilmadi. Lekin shoir hayoti va ijodi xususida bir qator olimlar va ijodkorlar, shuningdek, ijodkor zamondoshlarining bir qator maqolalari<sup>12</sup> mavjud. Xususan, tilshunos olim, E.Allanazarov “Qaraqalpaq tilinde metaforalardıń stilistikalıq qollanılıwı (T.Jumamuratov poeziyasi tiykarında)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Adabiyotshunos M.Jumamuratova o‘zining “Xalıq shayırları dóretpelerinde milliylik hám internacionallıq (A.Muwsaev, A.Dabilov, S.Nurimbetov, T.Jumamuratov shıǵarmaları mısasında)” mavzusidagi nomzodlik ishi hamda “Sóz marjanın dizgenler” monografiyasida T.Jumamuratov ijodining o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Q.Sultanovning “Shayır jolı” nomli ilmiy ishini T.Jumamuratov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot sifatida e’tirof etish mumkin. Unda olim, shoir ijodiga nisbatan bildirgan munosabatlar va tahlillarida o‘tgan davr mafkurasi asosida yondashganligi seziladi. So‘nggi davr adabiyoti tadqiqi bilan shug‘ullangan olim Z.Bekbergenovanning “Házirgi qaraqalpaq poeziyasında folklorlıq dástúrler” monografiyasida T.Jumamuratov asarlari I.Yusupov va T.Matmuratov ijodi bilan aloqadorlikda o‘rganiladi. Bundan tashqari, Q.Orazimbetov, P.Nurjanov, O.Gayliyeva, Sh.Smamutova, G.Tleuniyazova, Q.Matimovlarning<sup>13</sup> poeziyaga bag‘ishlangan tadqiqotlarida T.Jumamuratov ijodiga bizning mavzuga xos ayrim munosabatlar bildiriladi. Bizning tadqiqotimiz T.Jumamuratov ijodining asosiy qismini tashkil etgan nazmiy asarlardagi xalqona pafos hamda badiiy mahorat muammosiga bag‘ishlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>12</sup> Максетов Қ. Халық шайыры ҳаққында сөз // Совет Қарақалпақстан. - № 250. 31-декабрь. – Нөкис, 1985; Байниязов Қ. Шайыр мәртебеси // Совет Қарақалпақстан. № 114. 16-июнь. – Нөкис, 1990; Мәмбетов К. Аты аңызға айланған шайыр // Еркін Қарақалпақстан. - № 99-100. 24-июнь. – Нөкис, 1995; Камалов Қ. Ол ҳақыйқый шайыр еди // Қарақалпақстан жаслары. - № 16. 20-апрель. – Нөкис, 2000; Пахратдийнов Ө. Есиғиңниң алдынан аққан суўдың қәдири жоқ // Өмиўдәрья. - № 3-4. –Нөкис, 1997; Бекбергенава З. Халық шайырының баҳалы мийрасы // Қарақалпақстан жаслары. – Нөкис, 1996; Жәримбетов Қ. Жүзден жүйрик шайыр // Қарақалпақ әдебияты. - № 4. – Нөкис, 2016.

<sup>13</sup> Оразымбетов Қ. Хәзирги қарақалпақ лирикасында көркем формалардың эволюциясы хәм типологиясы. – Нөкис: Билим, 2004; Нуржанов П. Әдебият ҳаққында ойлар. – Нөкис: Билим, 2023; Гайлыева О. Ғәрезсизлик дәўири түркий халықлар лирикасында формалық изленислер хәм олардың типологиясы (Өзбек, қарақалпақ хәм түркмен лирикасы мысалында): Филол. илим. д-ры. ... дис. – Нөкис, 2019; Смамутова Ш. Ғәрезсизлик дәўири қарақалпақ лирикасында халық поэзия дәстүриниң раўажланыўы: Филол. илим. филос. д-ры (PhD). ... дис. – Нөкис, 2021; Тлеўниязова Г. Хәзирги қарақалпақ лирикасында композициялық изленислер (1990-2010-жыллар). Монография. – Ташкент: LESSON PRESS, 2022; Матимов Қ. Қарақалпақ әдебиятында импровизация дәстүри (генезиси хәм эволюциясы): Филол. илим. филос. д-ры (PhD). ... дис. – Нөкис, 2022.

Ta'kidlash lozimki, shoir ijodida E.G.Rudneva, A.B.Esin, M.Olimov, Z.Pardayev kabi adabiyotshunoslar ko'rsatib o'tgan romantik, qahramonlik, satirik va yumoristik turlari uchrasa-da, ularda xalq hayoti, madaniyati, folklor an'alaridan andoza olganligi kuzatiladi. Shu ma'noda, shoir ijodining bosh pafosi – xalqchilikda namoyon bo'lish bilan bir qatorda ijodiy o'ziga xosligini ham belgilaydi.

Shoir ijodida xalqona pafosning ustunlik qilishi uning xalq og'zaki ijodini chuqur bilishi, o'rganishi va ularni o'z asarlarida tasvirlashida ko'rinadi. Zero, yoshligidanoq xalq poeziyasidan bahramand bo'lib, diniy va dunyoviy ta'limlarni o'zlashtirgan shoir ijodi tobora mukammalashib boradi. Shunday ekan, shoir ijodining debochasi xalq ma'anaviy-ma'rifiy hamda ruhiy olamiga borib taqaladi. Chunki, u yashab ijod etgan davrlarda shoirning tinglovchisi ham unga munosabat bildiruvchi ham xalq bo'lgan. Adabiyotshunos olim, I.Sulton: “Xalq manfaatlarini muayyan darajada ifodalay olgan ijod namunasini xalqchil asar”<sup>14</sup>, – deya e'tirof etgan holda uning bir necha element yoki tashqi alomatlarini sanab o'tadi. Ushbu holat va mezonlar T.Jumamuratov poeziyasida quyidagicha aks etadi:

a) adabiy asarlar xalqona ruhda ifodalanishi: T.Jumamuratovning aksariyat asarlari xalqqa nihoyatda yaqin o'quvchi qalbi bilan hamohang ravishda ifodalanadi. Ayniqsa, ifoda vositalari ham xalqona ruhiyatga monand, bir o'qishda asar mohiyatini anglashga yo'naltiruvchi badiiy detallar orqali tasvirlangan. Xususan, “Shayrlıq tolqını” she'rida shunday satrlarni uchratamiz:

Qağaz maydan, qálem jorğa,  
Súr jorğanı, qolım meniń.  
El qızıǵar sulıw jırǵa,  
Sayra-sayra tilim meniń!<sup>15</sup>.

Ushbu bandda shoir hayotiy pozitsiyasini badiiy talqin qilishda xalqona obrazli tafakkur orqali “**qağaz maydan, qálem jorğa**” metaforalari hamda “**sulıw jırǵa, sayra-sayra tilim**” kabi epitetlardan mohirona foydalanadi. Shoir she'riyatida so'z marjonlari bilan bir qatorda uning ohangiga ham alohida e'tibor qaratadi. Yuqoridagi she'rga xos bo'lgan temp va ritm uning mohiyatini ochishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

b) shoir va xalq ijodiyoti aloqalari: folklorga xos syujetlar, tasviriy vositalar, qahramonlarning badiiy talqini kabilar shoirning birgina “Mákárya sulıw” dostonida to'liq namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, shoirning aksariyat liro-epik asarlarida folklor an'analari yaqqol seziladi.

d) adabiy asarda mehnatkash xalq hayoti va turmushida muhim rol o'ynaydigan qahramonlar tasviri: T.Jumamuratov ijodida mehnat mavzusi bilan birga xalq hayotining turli jabhalarida fidokorna faoliyat olib borayotgan davr qahramonlari tasvirlangan. Xususan, “Ómirińniń ózi filosofiya” kitobidagi “Meniń zamanlaslarım” fasli ayni shu mavzudagi she'rlardan iborat.

e) xalq ijodiyoti o'zaro hamkorlik, do'stlik, ma'naviy baynalminallik bilan sug'orilishi: T.Jumamuratov ijodida do'stlik eng ko'p yangragan mavzu sanaladi.

<sup>14</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 104.

<sup>15</sup> Жумамуратов Т. Тўрли өткеллер. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1983. – Б. 3.

Buni shoirning qardosh xalqlar hayotiga bag'ishlangan "Tájik biradarlarǵa", "Qazaqstan dápteri", "Qazaq dostima" kabi she'rlarida kuzatish mumkin.

Ko'rinadiki, T.Jumamuratov ijodida adabiyotshunos I.Sulton e'tirof etgan xalqonalik alomatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**T.Jumamuratov poeziyasida shakl va mazmun uyg'unligi**" deb nomlanadi. Bobning "**T.Jumamuratov kichik lirik asarlarida shakl va mazmun mutonasibliği**" deya nomlangan birinchi faslida lirikada xalqona pafos va uning badiiy ifodasi T.Jumamuratov ijodi misolida o'rganildi. Shoirning kichik lirik janrga mansub asarlari, xususan, uchlik, to'rtlik, muhammas, olti, sakkiz va o'n satrli hamda satirik asarlarida xalqona pafosning mohirona tasviri aniq misollar orqali tahlil qilindi.

Shoir lirikasini xalq poeziyasining namunasi asosida yaratilganligi bilan bir qatorda, ularga o'zgacha fon, rang, shakl berib rivojlantirganligi va shu asosda yangicha shakl hamda mazmun bilan boyitganligini kuzatish mumkin. Masalan, shoir to'rtligida:

Gónermeydi elge etken jaqsılıq,  
Qartayǵanda erkeleter jas qılıp,  
Sheńgel bolıp kese turar aldınnan,  
Bolsa sende hiyle, tásil, pás qılıq<sup>16</sup>.

Bu satrlar orqali shoir xalqqa qilgan yaxshilikning hech qachon eskirmasligini, qachon bo'lsa ham obro'-martabangni ko'kka ko'tarib, o'rningni to'rga chiqarishini, aksincha past va yomon illatlar oyog'ingdan chalib, tushov bo'lishini to'rt satrda obrazli aks ettiradi. Bir qarashda bu satrlar oddiy so'zlardek tuyulsa-da, lekin chuqurroq e'tibor berib qarajak, zamirida katta ma'no yotganini anglash qiyin emas. Shoir bu to'rtligida har bir odamning tug'ilib o'sgan yurtiga, xalqiga qilgan xizmatlari, hattoki, salbiy ishlari ham unutilmasligi ta'sirli so'z etiladi.

T.Jumamuratov lirikasi xalq she'riyatidagi pand-nasihath she'rlariga mazmuni va shakli jihatidan juda yaqin keladi. "Ya'ni mazmun ijodkorning o'zini o'rab turgan muhit haqidagi o'y-xayollari, har xil hodisalarga emotsional va ongli munosabati. Shakl esa – shu mulohazalar, munosabatlarning yuzaga chiqishining vositasi va usuli"<sup>17</sup>. Lekin, shoirning o'ziga xosligi – bugungi kun hayoti misolida nasihat qiladi. Masalan, yana bir to'rtligida:

Ómirimniń hár túni,  
Satilmaydı aylıqqa.  
Ómirimniń hár kúni,

Tabilmaydı baylıqqa<sup>18</sup>, – deb, shoir har bir kun inson uchun muhim va qadrli ekanligini, hattoki, o'tib ketgan vaqtni pulga ham sotib olib bo'lmasligini "tun" va "kun" antitezalari orqali mohirona aks ettirgan.

Shoir ijodini o'rganish davomida ijodkorning satiraga moyilligi kuzatildi. Ularda muallif o'zining jamiyatga nisbatan munosabati, subyektiv g'oyalarini lirik qahramon obraziga singdirish orqali tasvirlaganini anglash mumkin. Zero, real hayotda xalqqa zulm o'tkazgan mansabdor shaxslar qilmishlarini fosh etishda

<sup>16</sup> Жумамуратов Т. Аралға келдим оралып. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2016. – Б. 17.

<sup>17</sup> Оразымбетов Қ. Таңдамалы шығармалар топламы. Еки томлық. 1-т. – Нөкис: Билим, 2018. – Б.145.

<sup>18</sup> Жумамуратов Т. Өмириңнің өзи философия. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2005. – Б. 118.

satira shoir uchun katta imkoniyatlar bergan. Shu yo‘nalishdagi asarlarda shoirning asarlaridagi xalqchilik aniq namoyon bo‘ladi. Ijodkor satirik obrazlar yaratish, hayotning achchiq haqiqatlarini badiiy talqin qilishda xalqona, o‘tkir so‘zlardan keng foydalanadi. Bu borada muallifning “Bir dúkanshı jóninde”, “Ton menen tóbeles”, “Máspambettiń túsi”, “Táshimniń talabı”, “Allamurat álpayım” kabi asarlarini alohida ta’kidlash mumkin. T.Jumamuratov xalqchil shoir sifatida umrining oxirigacha o‘z dasxati, ijodiy uslubiga sodiq qolgan iste’dod egasi edi.

To‘rtliklaridagi falsafiy mazmunni ifodalash aksariyat hollarda pand-nasihat, shuningdek, folklor namunalari bilan uyg‘unlikda aks etirilishi xalqona pafosni ko‘tarinki nuqtaga olib chiqadi. Quyidagi to‘rtlik mazmunida mazkur fikrlarning yorqin dalilini kuzatish mumkin:

Adam bolsań jámiyetke dáreксеń,  
Qosılmasań tamırı joq tereксеń,  
Oylamasañ tek ózińnen basqanı,  
Aytshı, qáne, sen kimlerge kereксеń?<sup>19</sup>.

Bu satrlarda shoir insoniy fazilatlaridan mahrum bo‘lib qolgan insonlarni batafsil tasvirlaydi. Chindan ham, ildizi yo‘q daraxt yashay olmaganidek, jamiyatga qo‘shilmagan, xalqi bilan birga bo‘lmagan inson ham hech kimga kerak emasligini, ildizi yo‘q, qurigan daraxtga o‘xshatib tasvirlaydi. To‘rtliklaridagi o‘z o‘rnida qo‘llanilgan qatorlar orasidagi o‘zaro poetik uyg‘unlik va qofiyaning mohirona berilganligi tufayli xalqona tushunchaga aylanib ketgandek seziladi.

Shuningdek, ushbu faslda shoir ijodiga mansub to‘rtliklar bilan bir qatorda uchlik, muhammas, olti, sakkiz va o‘n satrli she’rlarida shakl va mazmun mutanosibliigi hamda ularning xalqona pafosni ifodalashdagi ahamiyati aniq misollar bilan tahlil qilindi.

Ikkinchi bobning **“Shoirning liro-epik asarlarida xalqona pafos va folklorizmlar”** deb nomlangan ikkinchi faslida shoirning liro-epik asarlar yaratishda afsona, ertak va dostonlarga xos syujetlardan stilizatsiya qilib foydalangan holda novatorona yondashilganligi tahlil qilindi. Bu asarlarda xalqona pafosni vujudga keltirishda metafora, sifatlash, ironiyalar bilan birga antiteza, kontrast, allegoriya kabi tasviriy vosita va usullaridan keng foydalangan. Adabiyotshunos Z.Bekbergenova ta’biri bilan aytganda: “T.Jumamuratov liro-epik asarlarining aksariyati folklor syujetlari asosiga qurilgan. Lekin syujet voqealari bugungi hayot voqeligi bilan aloqadorlikda ifodalangan”<sup>20</sup>. Xususan, shoirning “A‘gayinli eki batır” poemasi rivoyat asosida yaratilgan bo‘lib, shoir inson kindik qoni to‘kilgan joy, tug‘ilib o‘sgan zaminga sadoqatli farzand siymosini Atiraq va Sursha obrazlarida mujassamlashtirgan. Poemaning debocha qismidayoq shoir asarini tug‘ilgan maskan va xalqini ardoqlashga bag‘ishlaganini e’tirof etadi:

Úrgin ursa, qaytar jeldi,  
“Kim súymeydi tuwǵan eldi!”  
Dep násiyat bergen xalıq,

<sup>19</sup> Жумамуратов Т. Толқында. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1970. – Б.15.

<sup>20</sup> Бекбергенова З. Ҳазирги қарақалпақ поэзиясында фольклорлық дәстүрлер. (Т.Жумамуратов, И.Юсупов, Т.Мәтмуратовтың 70-80-жыллардағы поэзиясы мысалында). Монография. – Нөкис: Илим, 2011. – Б. 54.

Bir hikayat yadq keldi<sup>21</sup>.

Mazkur satrlarda shoir tug‘ilgan yurt, Vatanni dushmanlardan himoya qilish har bir farzandning yigitlik burchi ekanligini “úrgin ursa, qaytar jeldi” metaforik obraziga yuklaydi. Shuningdek, poemada muallif Vatanni – “gul” badiiy detali orqali tasvirlash bilan uning yanada xalqona ruhga burkanishini ta’minlaganki, bu o‘rinlarda ijodkor mahorati yorqin aks etadi. Asar qahramoni – Atiraq tug‘ilgan maskanidan olib kelingan gulni ko‘rib, ona-yurtini sog‘inadi va o‘zga yurtdagi podsholik taxtidan voz kechib o‘z diyoriga qaytadi.

Altın tağı ğayrı eldiń,  
Elimdegi mına gúldiń,  
Birewindey lázzeti joq,  
Adasıppan, endi bildim<sup>22</sup>.

Ushbu she’riy bandda o‘zga yurt boyligi, toju taxtiga ruju qo‘ygan Atiraqning o‘z yurtida o‘sgan bir tup gulning hidiga maftun bo‘lib, tug‘ilgan yurti, bolalik chog‘lari, onasiga qilgan erkalik va sho‘xliklarini eslab yuraklari ezilganligi anglashiladi. She’rda shoir gul ramzi orqali ona-yurtning buyukligi, qadr-qimmatini Atiraq ruhiy holati bilan uyg‘unlikda aks ettirgan. Bu kabi vatanparvarlik g‘oyalarini gul va sahro nolasi detallari orqali ifodalashi shoirning so‘z tanlash, shakl va mazmun uyg‘unligini ta’minlash borasidagi o‘ziga xos mahoratini ko‘rsatadi.

Shoirning ertak syujetiga asoslangan “Kiyiktiń eki ılağı” poemasi 4 bo‘limdan iborat bo‘lib unda muallif o‘quvchini asar voqealariga diqqat bilan qarashga undaydi. Ayniqsa, II bo‘lim voqealari inson qalbini larzaga soladi. Syujetda bo‘ri hujimidan ikki bolasini qutqarib, o‘zi esa og‘ir jarohatdan jon taslim qilgan ona kiyikning ayanchli ahvoli nihoyatda ta’sirli tasvirlangan:

Sııq etip bası jıǵıldı,  
Kózi de átteń, jumıldı...  
Sonda da barıp ılaqlar,  
Anasına tıǵıldı<sup>23</sup>.

Lekin, mazkur satrlardagi o‘ta jo‘n tasvir hamda oddiy so‘zlar tizmasi shoir mahoratiga qaysidir ma’noda putur yetkazgandek tuyuladi. Shunday bo‘lsa-da, asar syujetida shoir hatto hayvonlarda ham onalik mehri, tuyg‘usi kuchli ekanligini ona kiyik misolida ifodalab beradi. Nobut bo‘lgan ona kiyikning jonsiz tanasi ham bolalariga panoh bo‘lganligi nihoyatda ta’sirchan tasvirlanadi.

Bobning **“Mákárya sulıw” dostonida umuminsoniy va milliy g‘oyalar uyg‘unligi**” deb nomlangan uchinchi faslida asar syujetining xalq dostonlari bilan bog‘liq tarzda yaratilganligi, xalq og‘zaki ijodiga xos an’analarni takrorlabgina qolmasdan, ijodiy foydalanganligi aniq misollarda ilmiy-nazariy tahlillar orqali dalillandi.

Asarda shoir mahorati shunchaki badiiy so‘z tizmalarida emas, balki bir hamohang g‘oyalarning mohirona ifodalanishida kuzatiladi. Shoir o‘tgan davrlar voqeligini tasvirlash orqali asar xalqchilligini yuzaga chiqaradi. Adabiyotshunos

<sup>21</sup> Жумамуратов Т. Мениң заманласларым. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1963. – Б.145.

<sup>22</sup> О‘sha manba. – Б. 152.

<sup>23</sup> Жумамуратов Т. Кийиктиń eki ılağı. – Нөкис: Bilim, 2015. – Б. 9.

olim, Izzat Sulton to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “Ba‘zi adabiyotshunoslar adabiyot va badiiy asar xalqchilligini uning mazmunidan emas, balki shakliga qarab baholashga urinadi va xatoga yo‘l qo‘yadilar”<sup>24</sup>. Ko‘rinadiki, olim asar xalqchilligini shakldan emas, mazmundan izlash lozimligini ta‘kidlaydi. Haqiqatan ham asar xalqchillikka ega bo‘lishi uchun unda hamisha mehnatkash inson yoki xalq hayoti tasvirlanishi yoki sarlavhasi shu ruh bilan bog‘liq bo‘lishi shart emas. Asar mazmunida xalq manfaatini ifodalash, insonparvarlik g‘oyalarini aks ettirish xalqona pafosni vujudga keltiradi. Adabiyotshunos Q.Orazimbetov bo‘lsa: “Shakl mazmunni yoritish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham birinchi asarning shaklini qabul qilish orqali uning mazmunini tushunamiz”<sup>25</sup>, – degan fikrlarni bildiradi. Bu ikki olimning nuqtai nazarini ham ma‘qullaymiz. Chunki, shakl ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, shoir o‘yini, xayolini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. T.Jumamuratovning asosiy o‘yi va xayoli – xalqida bo‘ldi.

Demak, T.Jumamuratovning “Mákárya sulıw” dostonini yuksak darajadagi xalqona pafos ruhidagi asar sifatida baholash mumkin. Negaki, unda vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari Makaryaning el-yurti va o‘z yoriga bo‘lgan sadoqati, Paramonning dushmanga qarshi qahramonona kurashlari fonida o‘z ifodasini topgan. Shoir asarda Ko‘kcha va Paramon obrazlari tasvirida kontrast tasvirdan foydalanadi.

Xalqımnıń sózi: “Ájdárha jutqan azayıp” –  
Bir jaǵı shınlıq, ertek te bolsa jazayıp.  
Óz kózi menen kóripti meniń batırım  
Toqtayın saǵan, ketpesin sózim uzayıp<sup>26</sup>.

